



MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING JADIDCHLIK HARAKATIDA
TUTGAN O'RNI

XASANOVA NODIRA IBRAGIMOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti

“Tarix va falsafa” kafedrasi dotsenti (PhD)

Email: nodira74xasanova@gmail.com

UDK: 9:433:908

ORCID 0009-0004-5344-5182

Yusupova Ma'rifat Mirzohid qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi

E-mail: aktamyormatov3 gmail.com

Tel: +998996806606

Annotatsiya: Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik faoliyati O'zbekistondagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar davrida muhim o'rin tutgan. U jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, ta'lim va madaniyatni modernizatsiya qilishga, zamonaviy ta'lim usullarini joriy etishga katta e'tibor qaratgan. Behbudiyning faoliyati, ayniqsa o'zbek tilining o'rni va uni ilmiy va madaniy ishlarda foydalanishga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turadi. U ta'lim tizimida yangiliklarni joriy qilish orqali yoshlarni zamonaviy dunyoqarash va bilimga ega qilishni maqsad qilgan. Bu mavzu Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi ahamiyati, uning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi va bu o'zgarishlarning jamiyat hayotida qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish orqali yanada chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ismoil Gaspirinskiy, jadid, duma, mustamlakachilik, sho'ro, dramtruppa, mufti, jurnal, gazeta, usuli savtiya. Yusupova:

Abstract: The Jadidist activity of Mahmudkhodja Behbudi played an important role in the period of social, political and cultural changes in Uzbekistan. He was one of the leading representatives of the Jadidist movement, paying great



attention to the modernization of education and culture, the introduction of modern teaching methods. Behbudi's work is especially distinguished by the role of the Uzbek language and his passion for its use in scientific and cultural work. He aimed to provide young people with a modern worldview and knowledge by introducing innovations in the education system. This topic will be analyzed in more depth by studying the importance of Mahmudkhodja Behbudi in the Jadidist movement, his contribution to the education system, and the impact of these changes on the life of society.

Keywords: Ismail Gaspirinsky, Jadid, Duma, Colonialism, Soviet, Drama troupe, Mufti, Journal, Newspaper, Usuli Savtiya.

Аннотация: Джадидистская деятельность Махмудходжи Бехбуди сыграла важную роль в период общественно-политических и культурных изменений в Узбекистане. Он был одним из ведущих представителей джадидистского движения, уделяя большое внимание модернизации образования и культуры, внедрению современных методов обучения. Творчество Бехбуди особенно отличается ролью узбекского языка и его страстью к его использованию в научной и культурной работе. Он ставил своей целью дать молодежи современное мировоззрение и знания путем внедрения новшеств в систему образования. Эта тема будет проанализирована более глубоко путем изучения значения Махмудходжи Бехбуди в джадидистском движении, его вклада в систему образования и влияния этих изменений на жизнь общества.

Ключевые слова: Исмаил Гаспиринский, Джадид, Дума, Колониализм, Советский, Драматическая труппа, Муфтий, Журнал, Газета, Усули Савтия.

Kirish: Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 - yilning 19 - yanvarida (hijriy 1291 - yil 10 - zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, Yomini mahallasida diniy olim oilasida dunyoga kelgan. Ota bobolari Urganchdan Samarqandga kelgan. Xususan kata bobosi Niyozxo'ja Urganchdagi mashhur qorilardan bo'lgan. Undan Solihxo'ja ismli o'g'il qolgan. U ruslar Samarqandni egallamasdan oldin vafot etgan.



Solixxo'jadan Behbudxo'ja ismli bir o'g'il, Huriniso va Najimaniso ismli qizlar tug'ilgan. 1868 - yilda ruslar Samarqandga bostirib kimgach Behbudxo'ja oilasi bilan Baxshitepa qishlog'iga ko'chib o'tadi va bu yerda imom va xatiblik lavozimida ishladi. Mahmudxo'ja ham shu yerda dunyoga keldi. Qorilik va imom - xatiblik orqasida kata boylik to'plagan Behbudxo'janing besh xotini bo'lib, Mahmudxo'ja uning ikkinchi xotinidan tug'ilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6 - 7 yoshlarida kata tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida xat va savod chiqardi. Shundan so'ng otasi o'g'lini qorilikka tayyorlash maqsadida quronni o'rgatib boradi. Mahmudxo'ja qorilik bilan qanoatlanmay, tog'asi mufti mulla Odil xuzuriga borib ilm o'rgandi. Behbudiyning onasi 1893 - yilda, otasi 1894- yilda vafot etdi. Mahmudxo'ja otasining vafotidan keyin o'qishni tashlab, turmush tebratishni ixtiyor etib, tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida mirzolik qildi. Tog'asi qozilik lavozimidan bo'shagach, Kobul volosti qozisi mulla Zahir xuzuriga borib, mirzolik vazifasini bajardi. Ammo oradan ikki oy o'tmay muftilik vazifasiga ko'tariladi va 1916 – yilgacha shu yerda xizmat qildi.

Behbudiy jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi bilan 1903 - yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolayi jug'rofiyayi umroniy” (1905), “ Risolayi jug'rofiyayi Rusiy” (1905), “ Kitobat - ul atfol' (1908), Amaliyoti islom” (1908), Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar yozgan.[1]

Asosiy qism: Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy - siyosiy, ma'rifiy harakatdir. “Jadid” arabcha so'z bo'lib, “yangi” degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asr 80 – yillarida Qirimda Ismoil Gaspirali rahbarligida vujudga keldi. U 1884-yil martda Qirimdagi Bog'chasaroy shahrida jadid maktabini ochdi va u “ usuli savtiya tadrijiya” maktabi bo'lgan. Ismoilbek 1893- yilda Toshketga kelib, ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va Mo'minxo'ja Vobkendi, g'ijduvonlik Domla Fozil say- harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga “Muzaffariya” degan nom berilgan. Bundan so'ng 1893- yili Samarqandda,



1898- yili Qo'qonda Salohiddin domla tomonidan, o'sha yili To'qmoqda " no'g'ay maktabi " deb atalgan, 1899- yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900 - yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903- yili Behbudiy o'z mablag'idan Jomboyda maktab ochdi. Hoji Muinxon va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1911- yilga kelib Turkistonda jadid maktablari 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola tahsil olgan. Toshkentning o'zida 24 ta bunday maktablarda 1740 nafar bola o'qigan. 1917 – yil o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy - ma'rifiy harakatning, ya'ni eski maktablarninig qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslub asosida o'qitishga o'tishdangina iborat emasdi, ayni chog'da turk - islomiy huquqiy munosabatlarning millatga o'rgatilishi, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o'z ichiga olgan edi.[2]

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy tarixda "Turkiston jadidlarining otasi" deb nom olgan. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida bunday deydi: "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak". Behbudiy Ismoil Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan " usuli jadid " maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Yangi tipdagi maktablarning milliy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozadi. Maktab darsliklari yaratadi. Nashriyot tashkil qilib, darslik va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til- yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari Behbudiy 1913-yilda " Samarqand " gazetasi va " Oyina " jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab 2 so'ng 4 betlik bo'lib, o'zbek va tojik tillarida haftada ikki marta chiqqan va moddiy tanglik tufayli 45- sonidan keyin to'xtagani ma'lum. " Oyina " o'lkada o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. Xalq orasida mashhur bo'lgan " Oyina " jurnali 1913 - yil 20 - avgustdan chiqa boshlaydi.



Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har o'n besh kunda bosilib chiqqan. 1914 - yil 52 - sonidan keyin " Oyina " o'z faoliyatini to'xtatishga qaror qiladi. Ammo idoraga kelgan iltimoslar sabab 68 - sonigacha davom etdi. 1925 - yil 15 - iyundagina jurnal faoliyati tugatildi.[3] Mahmudxo'ja Behbudiy 1893 - yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan turkiy va forsiy matbuotlar bilan tanishib borar edi. U 1899 - 1900 yillarda buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi va sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar va yangiliklar bilan tanishib chiqadi. U Samarqandga qaytishi bilan " Tarjimon " gazetasiga azo bo'ladi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-1904- yillarda Moskva, Peterburgga, 1906- yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda xizmat safarida bo'ladi. Nijniy Novgorodda 1906 - yil 23- avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig'i sifatida qatnashdi va musulmonlarning ahvoli haqida nutq so'zlaydi.

1912 -yilda yozilib 1913- yilda bosilgan " Padarkush " dramasi Behbudiya juda katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi o'zbek dramasi " Marhamlar " bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan e'lon qilingan bo'lsada, bu sohada ham karvonboshi bo'lib Behbudiy tarixga kiradi. Asar 1914 - yilning 15- yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yiladi. 27 - fevralda esa Toshkentdagi mashhur " Kolizey "da " Turon " truppasi o'z faoliyatini shu spektakl bilan boshlaydi. Shundan so'ng Buxoro, Qo'qon, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda sahnaga qo'yiladi. Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. Bu haqida Abdulla Qodiriy "1913-yilda chiqqan " Padarkush " pyesasi ta'sirida " Baxtsiz kuyov " degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim " deb yozgan edi.[4]

Jadidchilik harakatida Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyat katta ahamiyat kasb etganligini hozirgi zamon tarixchilari ham e'tirof etadilar. XX asrning buyuk mutaffakkirlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning tarixiy dunyoqarashi haqida aytib o'tmaslik ham mumkin emas. Behbudiyning ijtimoiy ong, uning rivojlanishi va taraqqiyoti qanday tarixiy ahamiyat kasb etganligi, o'zining bir qator muammoli



asarlari jumlasiga kiruvchi “ Tarix va Jug’rofiya “ nomli maqolasida aniq ifodalangan. Uning aytishicha tarix va jug’rofiya fanlari o’sha paytgacha bid’at, gunohdan iborat, deb hisoblab kelingan. Behbudiy esa, bu fanlarning o’z zamonasi uchun zarurligini isbotlaydi, ayni paytda, ularni islomning mo’tabar fanlari sirasiga qo’shib, bu fanlar jadid maktablarining ixtirosi emas, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo’lib kelganligini ta’kidlaydi. Behbudiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni “ Aqilli ilmlar “ tushunchasi ostida birlashtiradi. “ Xalq tarixi, mamlakat tarixi, islom tarixini bilmay turib oddiy musulmon, davlat arbobi, ruxoniy, olimlarning ham bo’lishi mumkin emas “ deydi Behbudiy. Uning fikricha tarix hamma narsani - davlatning gullab - yashnashi va inqirozining sabablarini, odamlar e’tiqodining holatini, musulmonchilikning tanazzulini, islom ilohiy poydevorining buzulishini tushuntiradi. Komil va adolatli inson bo’lish uchun, albatta, tarixni bilish kerak, birorta ham bilim tarix ilmisiz komil bo’lmaydi. Behbudiy o’z xalqining taraqqiyotini nafaqat ma’rifat bilan, balki siyosiy o’zgarishlar, mustaqillikka erishish bilan bog’lagan. O’zining aksariyat maqolalarida rus chorizmining mustamlakachilik siyosatini ochib tashlaydi, go’yoki bular mahalliy aholining foydasi uchun qabul qilinganday, aslida uning ahvolini og’irlashtirishga yo’naltirilgan qonunlarni tanqid qiladi. U o’zining “ Bayoni haqiqat “ nomli maqolasida “ Haq olinur berilmas “ deb ta’kidlaydi. Behbudiy boshqa ko’plab jadidlar kabi mustamlakachilikka qarshi qon to’kishlarsiz kurash tarafdori bo’lib, har qanday ko’rinishdagi inqiloblarga qarshi edi. U Duma ishini muntazam ravishda kuzatib borgan va parlament kurashi orqali ko’p narsalarga erishish mumkin deb hisoblagan. Uning fikricha har bir shahar va uyezddan bir nechtdan vakil saylash kerak va Toshkentda Turkiston uchun yaroqli amaliy natija beradigan soliq qonunlari va farmonlar chiqara oladigan katta markaz va majlis tashkil etish kerak. Bu majlis Rossiya hukumati va musulmonlar o’rtasida vositachi bo’ladi. Bu Turkistonning farovonligiga xizmat qiluvchi Turkiston uchun saylangan ma’murlarni mustahkamlaydi deb hisoblagan. 1917 - yil 26 - noyabrda Qo’qonda musulmonlarning IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. Behbudiy shu qurultoyda o’lka musulmonlar sho’rosining raisi etib saylandi. 27- noyabrga o’tar kechasi “ Turkiston muxtoriyati “ e’lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon



qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi Behbudiy edi. Ammo 1918 - yil 19- fevralda muxtoriyat boy berildi. Bu harakatlar bolsheviklar tomoanidan xoinona bostirildi. 19 - 20- fevral kunlari shahar to'pga tutilib, 10 mingta turkistonliklar o'ldirildi va 180 ta qishloqqa o't qo'yildi. Behbudiy qiyinchilik bilan Samarqandga qaytadi va bu yerda ham tura olmay, Toshkentga keladi. Bu yerda Turkiston rus sovet hukumati bilan olib borilgan muzokaralar natija bermaydi. Behbudiy esa 1919- yilning 25- martida Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl etiladi. Uning o'limi haqidagi xabar bir yildan so'ng ma'lum bo'ldi. 1920- yilning aprelida butun Turkiston xalqi motam tutadi. Bunday alamli xabardan so'ng, Fitrat “ Behbudiyning sag'anasini izladim “ nomli she'r bitadi. Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'limiga bag'ishlab she'rlar bitadi. Qarshi shahri 1926- 1937- yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritilgan. Boris Pyaskovskiy 1922- yildagi “ O'zbek teatri tarixi “ maqolasida uning maydonga kelishi haqida fikr yuritarkan, “ O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy” deb yozadi, adib nomida Toshkentda maorif kulubi, Samarqandda kutubxona va dramtruppa, Turkistonning deyarli hamma shaharlarida uning nomiga ochilgan maktablar, Buxoroda esa markaziy bosmaxona borligini ta'kidlaydi.[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Naim Karimov. Toshkent. 2010.
2. Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti, O'zbekiston tarixi kafedrası. Andijon. 2015.
3. Abdurashidov Zaynobiddin. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent. 2022.
4. Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent. 1999
5. Xamidulla Boltaboyev. Fitrat va jadidchilik . Toshkent. 2007.